

## "Toshkent yoshlar forumi - 2020" da

Dastlab OAV, jurnalist va blogerlar uchun matbuot anjumani tashkil etildi. Unda noyabr-dekabr oylari davomida o'tkazilgan yoshlar oyligi, undagi tadbirlarning navqiron avlod uchun ahamiyati haqida to'xtab o'tildi. Oylik Toshkent yoshlarini yanada birlashtirgani, ezgu maqsadlar sari yo'naltirgani, yangi tashabbuslar, ilg'or g'oya va harakatlarga yo'naltirgani e'tirof etildi. Forum haqida qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, uning ikki kuni ham juda qiziqarli uchrashuv va suhbatlar bilan o'tishi rejalashtirilgan. Xususan, bugun "Ijtimoiy soha - 2030: ta'lim va sog'liqni saqlash tizimi istiqbollari", "Toshkentning madaniy va turistik qiyofasi - 2030", "Huquqiy Toshkent - 2030", "Raqamli Toshkent - 2030", "Poytaxtning moliyaviy kelajagi va zamonaviy qiyofasi - 2030" mavzularida ma'ruza va muloqotlar bo'lib o'tdi.



"Toshkent yoshlar forumi - 2020" ning ochilish marosimi Bosh vazir o'rinbosari Behzod Musayev hamda Toshkent shahar hokimi Jahongir Ortiqxo'jayevning kirish so'zlari bilan ochildi. Ushbu nufuzli forumda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti fakultet yetakchilari hamda bir guruh faol talabalar faol ishtirok etishdi hamda quyidagi ma'ruza va taqdimotlarda qatnashish imkoniyatiga ega bo'lishdi.



"Ijtimoiy soha - 2030: ta'lim va sog'liqni saqlash tizimi istiqbollari". Spikerlar: Sherzod Shermatov, Amrillo Inoyatov, Inom Majidov. "Toshkentning madaniy va turistik qiyofasi -2030" Spikerlar: Aziz Abduhakimov, Ozodbek Nazarbekov, Ravshan Ermatov. "Huquqiy Toshkent - 2030". Spikerlar: Ruslanbek Davletov, Akmal Burxonov, Bekzod Mavlonov. "Raqamli Toshkent - 2030". Spikerlar: Olimjon Umarov, Abdulla Azizov, Farxod Ibragimov



"Toshkentning moliyaviy kelajagi va zamonaviy qiyofasi - 2030" Spikerlar: Sardor Umurzakov, Temur Ishmetov, Sherzod Xidoyatov kabi qiziqarli va mulohazali, dolzarb mavzulardagi suhbatlarda institutimiz talabalari nafaqat ishtirok etishdi, balki hukumatimiz rahbarlaridan o'zlarini qiziqtirgan savollariga ham javob olishdi. Telekanallar va radiolarga, jurnalistlarga intervyular berishdi. Talabalar va fakultet yoshlar yetakchilari cheksiz motivatsiyaga ega bo'lishdi. Sizlarning e'tiboringizga forumda talabalarimiz qatnashgan fotojamlanmani taqdim etamiz. Forum 19 dekabr kuni ham davom etadi barchangizni taklif etamiz.



**TIQXMMI matbuot xizmati**